

O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA ESTETIK TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

R.F. Djoldasov

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17510410>

Annotatsiya: *Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-nazariy va amaliy-pedagogik manbalarni o'rganish, kuzatuv natijalari hamda tajriba-sinov ishlarining ilmiy xulosalari asosida shakllangan mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning samaradorlik darajasi tajriba sharoitida sinovdan o'tkazildi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy-nazariy, samaradorlik, o'rganish, tadqiqot muammosi, hissiyotlar.*

Tajriba jarayonida asosiy vazifa sifatida quyidagi masalalarga yechim topish ko'zda tutildi.

Tadqiqot mavzusiga muvofiq holda o'rta maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida estetik tarbiyalashni amalga oshirishning ilmiy-metodik va amaliy asoslari ishlab chiqildi.

Tajriba davomida yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi har bir darsning estetik jihatlariga bo'lgan munosabati, ularning shaxsiy ko'nikma va malakalarining sifat jihatdan rivojlanish jarayoni o'rganildi. Sotsiologik so'rovnomalar orqali o'quvchilarning jismoniy tarbiya faniga bo'lgan munosabati, dars mazmunidagi estetik xususiyatlarni anglash darajasi tahlil qilindi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida estetik ta'lim kompetensiyalarining shakllanish darajalari o'quv-tarbiyaviy ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasini takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishida estetik imkoniyatlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tajriba metodikasini ishlab chiqishda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: yuqori sinf o'quvchilarining dars jarayonini kuzatish; savol-javob mashg'ulotlari, so'rovnomalar, suhbatlar o'tkazish; ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash; tajriba materiallarini mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazish.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida turli metodlardan foydalanish orqali yuqori ta'limiy va tarbiyaviy samaradorlikka erishish, bu jarayon uchun mos usullarni tanlash, darsning mazmuni, mohiyati va shaklini oldindan rejalashtirish muhim didaktik ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida innovatsion o'qitish texnologiyalari, noan'anaviy darslar va interfaol metodlar keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida turli sport o'yinlarida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, ayrim o'quvchilar ba'zi jismoniy mashqlarni bajarishda qiynaladilar. Shu sababli estetik tarbiya vositasi sifatida ayrim mashqlarni o'rgatishda qo'shimcha tushuntirish, ya'ni harakatlarni to'g'ri bajarish sifatini oshirish va chuqurroq bilim berish maqsadida turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish zarur bo'ldi.

Har qanday ta'lim jarayonida tizimlilik va muntazamlilik tamoyillari didaktik jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida muntazamlilik tamoyiliga amal qilish, uning qonuniyatlarini anglash o'quvchilarda estetik ko'nikmalarni

shakllantiradi. Mashg'ulotlar muntazam o'tkazilganda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va estetik idroki barqaror rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarga estetik tushunchalarni singdirish uchun dars dasturida belgilangan tartib asosida, ularning yoshi va jismoniy imkoniyatlariga mos mashg'ulotlar muntazam tashkil etilishi lozim. Aks holda, uzluksizlikning buzilishi malaka va ko'nikmalarni yo'qotishga olib keladi.

Mashhur fiziolog I.P. Pavlov o'z tajribalari orqali so'zning inson organizmiga ta'sir kuchini ilmiy jihatdan isbotlagan. U tajribalarda so'z qon ketishini to'xtatishi yoki ichki a'zolar faoliyatini o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatgan. Pavlovning fikricha, so'z – inson psixologiyasi va hissiyotlariga eng kuchli ta'sir etuvchi vositadir.

Tajriba natijalarini statistik jihatdan tahlil qilish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanib, tajriba va nazorat sinflari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Yuqori ko'rsatkichlar uchun 3 ball, o'rta ko'rsatkichlar uchun 2 ball, past ko'rsatkichlar uchun 1 ball belgilandi. Tajriba sinf o'quvchilarining natijalari shu asosda baholandi [4].

O'quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash uchun, dastlab o'rtacha kvadratik va standart xatoliklarni hisoblab chiqamiz.

$$S_x^2 = \sum_{i=1}^{n=3} P_i x_i^2 - (\bar{x})^2 = 0,13 \cdot 3^2 + 0,5 \cdot 2^2 + 0,37 \cdot 1^2 - 1,76^2 = 0,13 \cdot 9 + 0,5 \cdot 4 + 0,37 \cdot 1 - 3,0976 = 1,17 + 2 + 0,37 - 3,0976 = 3,54 - 3,0976 = 0,4424$$

$$S_y^2 = \sum_{j=1}^{n=3} q_j y_j^2 - (\bar{y})^2 = 0,08 \cdot 3^2 + 0,18 \cdot 2^2 + 0,74 \cdot 1^2 - 1,34^2 = 0,08 \cdot 9 + 0,18 \cdot 4 + 0,74 \cdot 1 - 1,7956 = 0,72 + 0,72 + 0,74 - 1,7956 = 2,18 - 1,7956 = 0,3844$$

Va standart xatolar:

$$S_x = \sqrt{0,4424} = 0,67. \quad S_y = \sqrt{0,3844} = 0,62.$$

Natijada, nazorat guruhining standart xatoligi tajriba guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori bo'ldi, ya'ni $0,62 > 0,67$. Buni yanada aniqroq tasvirlash uchun har ikkala statistik tanlanma uchun o'rtacha qiymatning aniqligini variatsiya koeffitsiyentlari orqali hisoblaymiz. Bunda:

$$V_x \text{ and } V_y: V_x = \frac{S_x}{\bar{x}} \cdot 100\% = \frac{0,67}{1,76} \cdot 100\% = 38,1\%$$

$$V_y = \frac{S_y}{\bar{y}} \cdot 100\% = \frac{0,62}{1,34} \cdot 100\% = 46,3\%$$

Natijada, nazorat sinfidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichining aniqligi tajriba sinfidagiga nisbatan 8,2 foizga yuqori ekanligi aniqlandi.

Endi ikki bosh to'plamning noma'lum o'rtacha qiymatlari o'xshashligini hisobga olgan holda, Styudentning t-mezoni asosida nol gipotezani tekshirib ko'ramiz:

$$H_0 : \mu = \mu_y$$

Shundan kelib chiqib, quyidagi hisob-kitobni bajaramiz:

$$T_{x,y} = \frac{\bar{x} - \bar{y}}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} = \frac{1,76 - 1,34}{\sqrt{\frac{0,4424}{543} + \frac{0,3844}{524}}} = \frac{0,42}{\sqrt{0,00081 + 0,00073}} = \frac{0,42}{\sqrt{0,0015}} = \frac{0,42}{0,039} = 10,77$$

Styudent t-mezeni asosida erkinlik darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$K = \frac{\left(\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m} \right)^2}{\frac{\left(\frac{S_x^2}{n} \right)^2}{n-1} + \frac{\left(\frac{S_y^2}{m} \right)^2}{m-1}} = \frac{\left(\frac{0,4424}{543} + \frac{0,3844}{524} \right)^2}{\frac{\left(\frac{0,4424}{543} \right)^2}{542} + \frac{\left(\frac{0,3844}{524} \right)^2}{523}} = \frac{(0,00081 + 0,00073)^2}{\frac{(0,00081)^2}{542} + \frac{(0,00073)^2}{523}} =$$

$$= \frac{(0,0015)^2}{\frac{0,00000066}{542} + \frac{0,00000053}{523}} = \frac{0,0000023}{0,000000012 + 0,000000001} = \frac{0,0000023}{0,000000022} = 1045,5$$

Ushbu ehtimollik uchun statistik xususiyatning ahamiyatlilik darajasini 0,05 deb qabul qilsak, u holda $p=1-\alpha=0,95$ bo'ladi va erkinlik darajasi $k=1045,5$
 $t_{1-\frac{(1-p)}{2}}(k) = t_{1-\frac{(1-0,95)}{2}}(1045,5) = t_{0,975}(1045,5) = 1,96$ ga teng bo'ladi.

Olingan natijalardan ko'rinadiki, o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan katta va bilim darajasini baholash mezonini noldan yuqori. Bu esa tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagidan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Demak, yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida estetik tarbiyalanganlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarali bo'ldi.

Mohirona estetik tarbiya asosida shakllanadigan ruhiy holatlar juda barqaror bo'ladi. Ular o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, ularni faollikka, halollikka, boshqalar bilan munosabat o'rnatishga, g'ayratli bo'lishga, tashabbuskorlikka intilishga, malakali mutaxassis bo'lishga va har qanday vaziyatda go'zallikni namoyon etishga undaydi.

Yuqori sinf jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan turli sport mashqlarining samaradorligi ko'p jihatdan, birinchi navbatda, o'quvchilarga mos keladigan sohaning davlat ta'lim standartini mazmuniga hamda ushbu mazmunga mos keladigan uslubiy ta'minotga bog'liq. Shuningdek, sport turlaridan maktab o'quvchilari shaxsida estetik sifatlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanishda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ularning turli sinflardagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini chuqur bilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu model (2-rasm) jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o'quvchilarining ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish xususiyatlari tizimida alohida o'rin egallaydi.

Pedagogika fani va ta'lim amaliyotidan ma'lumki, har bir fanni o'qitish uning nazariyasiga asoslanadi. Jumladan, jismoniy tarbiya darslari jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi asosida rejalashtiriladi. Jismoniy tarbiya nazariyasi asoschilari uning aqliy, axloqiy va estetik tarbiya bilan uyg'unligi haqida bir qator fikrlarni bildirganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida yuqoridagi ta'lim turlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. O'quvchi shaxsini har tomonlama uyg'un rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga kompleks yondashish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari tizimida jismoniy madaniyatning Davlat ta'lim standartida o'quvchilar faoliyatiga qo'yiladigan talablarni chuqurroq ko'rib chiqish, maxsus tibbiy guruhlar uchun dastur ishlab chiqish va nazariy bilimlar mavzularini taqdim etish lozim. Jismoniy tarbiya darslarining uzluksizligini ta'minlash, namunaviy dars jadvallarini ishlab chiqish va jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, o'quv dasturlarini axloqiy-estetik jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir [4].

Natijalar. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylarining tahrir usullari alohida o'rin tutishini inobatga olib, ularning kasbiy faoliyatida ushbu usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berish jarayonida ularning jismoniy tarbiya darslarida ishtiroki davomida bolalarda go'zallik tushunchasi haqidagi tasavvurlarni to'g'ri shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarda estetik tarbiya kompetensiyasini shakllantirishda go'zallik elementlari yaqqol ko'zga tashlanadigan jismoniy mashqlar va sport turlarini kiritish beqiyos o'rin tutadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash vazifalarini hal qilish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda hech qanday tasodifiy va shoshilinch narsalar bo'lishi mumkin emas va o'quvchilarning estetik tarbiyasi o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Shuning uchun ular muntazam va tizimli ravishda amaliy faoliyat bilan shug'ullanishlari kerak. Ularning yoshi va fiziologik imkoniyatlariga mos keladigan muayyan didaktik talablar va pedagogik mezonlar asosida sharoit yaratish va estetik harakatlarni tanlash zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida estetik tarbiyalash uchun, avvalo, estetik xususiyatlarga ega bo'lgan jismoniy harakatlar texnikasi va turli sport o'yinlarini tanlash, ularning estetik jihatlarini tavsiflash va ularga amal qilganda o'yinning samaradorligi oshirishini tushuntirish muhimdir. Shunga ko'ra, jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashga xizmat qiladigan uslubiy ko'rsatma va qo'llanmalar yaratish zarur.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor qaratilayotgani sababli jismoniy va estetik madaniyatni takomillashtirish va rivojlantirishning istiqbolli pedagogik asoslarini ishlab chiqish, o'quvchilarni estetik tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini bosqichma-bosqich oshirib borish ushbu muammoni ijtimoiy-pedagogik masala sifatida uzoq yillar davomida uzluksiz o'rganishni taqozo etadi.

References:

1. Акмалова Д.Т. Современные исследования в области компетенций: анализ и перспективы. Проблемы и перспективы современной гуманитаристики: педагогика, методика преподавания, филология: сборник материалов международной научно-практической конференции. -Андижан – Санкт-Петербург: 2024. -С. 53-56. DOI.10.5281/zenodo.10784120.
2. Печеркина А.А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст]: монография. / А.А.Печеркина, Э.Э.Сыманюк, Е.Л.Умникова: Урал. гос. пед. ун-т. -Екатеринбург: [б.и.], 2011. –С.233.
3. Субочев Н.С., Архипова Т.Г. Компетентностный подход в управлении персоналом: учебное пособие. / Волгоградский институт управления – филиал ФГБОУ ВО РАНХиГС. – Волгоград: ИздательствоВолгоградского института управления – филиала РАНХиГС, 2016.
4. Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent. "Zebo prints" nashriyoti. 2023. – 112 b.